

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025  
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

OPEN  
ACCESS

ULRICH'S WEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
Российский экономический университет  
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

1931  
TDSU  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

2010  
TDTU  
TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI

1955  
TAKTU  
TOSHKENT DAVLAT VOKZALI ACADEMICHESKIY UNIVERSITETI

1955  
TDTU  
TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI

TJU  
TOSHKENT DAVLAT  
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU  
TOSHKENT  
AKHITTEKUTA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU  
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI  
1991

TJU  
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI  
1991



# **muhandislik & iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbanov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyedtinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish .....	12
<b>Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li</b>	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari .....	19
<b>Usmonov Abbas Valijon o'g'li</b>	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises .....	23
<b>Sheraliev Axror Sodiqovich</b>	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish .....	30
<b>Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari .....	37
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b>	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi .....	42
<b>Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li</b>	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari .....	46
<b>Kurbanova Raxima Jamshedovna</b>	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati .....	49
<b>Narziyev Umidjon Baxrillayevich</b>	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar .....	54
<b>Marufhanov Davron Xasanovich</b>	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка .....	58
<b>Юсупов Асфандиёр Элдор угли</b>	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari .....	63
<b>Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich</b>	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiysi .....	67
<b>Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich</b>	
"Intellektual multk", "Intellektual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtafigagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik .....	73
<b>N.D.Maxmudova</b>	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili .....	77
<b>Iskandarov Kudrat Shuxratovich</b>	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari .....	83
<b>Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich</b>	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi .....	87
<b>Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi</b>	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar .....	91
<b>Qosimova Lola Sultanovna</b>	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari .....	96
<b>Xursandov Komiljon Maxmatkulovich</b>	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar .....	100
<b>Rajabov Alibek Xushnudbekovich</b>	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
<b>Primova Shakhnoza Komiljonovna</b>	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozoridagi rivojlanish tendensiyalari .....	110
<b>Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi</b>	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review .....	120
<b>Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi</b>	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
<b>Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li</b>	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili.....	131
<b>Ismoilov I.B., Qayumov J.A., Ismoilov F.B., Qo'idoshev E.I.</b>	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi.....	137
<b>Baratov J.N.</b>	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari .....	144
<b>To'ychiyev Otabek Shamshihevich</b>	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
<b>Далиев Ахтам Шарафутдинович</b>	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
<b>Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich</b>	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
<b>Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li</b>	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari .....	169
<b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili .....	173
<b>Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi</b>	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
<b>Tojiyeva Muhayyo Valiyevna</b>	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili .....	188
<b>Karabev Nodir Abdumahidovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari .....	201
<b>Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna</b>	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budget siyosatining ahamiyati.....	207
<b>Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich</b>	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
<b>Mirpulatova Luiza Mansurovna</b>	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari tahlili .....	216
<b>Xatamov Nurbek Ochiliyevich</b>	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faoliyoti oshirishning shakllari .....	222
<b>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</b>	



# O'ZBEKISTON TURIZM SOHASIDA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING SHAKLLARI

## Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali dotsenti

ORCID: 0009-0001-6556-3424

Email: [o.khaitov@mail.ru](mailto:o.khaitov@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faollikni oshirish masalalari tahlil qilingan. Avvalo, turizmda innovatsion rivojlanishning nazariy-metodologik asoslari yoritilib, sohaning dolzarbligi asoslab berilgan. Shuningdek, turizm xizmatlari eksporti va xorijiy sayyoohlar oqimiga oid statistik ma'lumotlar keltirilib, innovatsion jarayonlarning hozirgi holati o'rganilgan. Tadqiqotda elektron vizalar, onlayn bronlash tizimlari, smart-turizm platformalari va transport-logistika infratuzilmasidagi modernizatsiya jarayonlari amaliy tahlil qilingan. Xorijiy tajriba bilan solishtirish asosida O'zbekiston sharoitiga xos muammolar va imkoniyatlar aniqlangan hamda innovatsion faollikni oshirish bo'yicha konseptual model ishlab chiqish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda davlat-xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, innovatsion faollik, raqamli platformalar, smart-turizm, elektron viza, turizm eksporti, transport-logistika, hududiy turizm, davlat-xususiy hamkorlik.

**Abstract:** This article examines the issues of enhancing innovation activity in Uzbekistan's tourism sector. The theoretical and methodological foundations of innovative tourism development are highlighted, and the relevance of the topic is justified. Statistical data on tourism services export and inbound tourist flows are presented, while the current state of innovation processes in the industry is analyzed. The study explores the introduction of e-visas, online booking systems, smart-tourism platforms, and the modernization of transport and logistics infrastructure. By comparing with international experience, specific challenges and opportunities for Uzbekistan are identified. Finally, recommendations are proposed to develop a conceptual model, expand the use of digital technologies, and strengthen cooperation between the state and the private sector.

**Keywords:** tourism, innovation activity, digital platforms, smart tourism, e-visa, tourism export, transport and logistics, regional tourism, public-private partnership.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены вопросы повышения инновационной активности в туристической сфере Узбекистана. Прежде всего освещены теоретико-методологические основы инновационного развития туризма и обоснована его актуальность. Также приведены статистические данные о экспорте туристических услуг и потоке иностранных туристов, исследовано текущее состояние инновационных процессов в отрасли. В работе проанализированы внедрение электронных виз, системы онлайн-бронирования, платформ «смарт-туризма» и модернизация транспортно-логистической инфраструктуры. На основе сопоставления с зарубежным опытом выявлены проблемы и возможности, характерные для условий Узбекистана, а также предложены рекомендации по разработке концептуальной модели, широкому внедрению цифровых технологий и укреплению сотрудничества государства и частного сектора.

**Ключевые слова:** туризм, инновационная активность, цифровые платформы, смарт-туризм, электронная виза, экспорт туризма, транспортно-логистическая инфраструктура, региональный туризм, государственно-частное партнёрство.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida turizm sohasi milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jahon miqyosida turizm xizmatlari hajmi yil sayin ortib borayotgani, yangi turistik yo'nalishlarning shakllanayotgani va xalqaro raqobatning kuchayishi turizmning zamonaviy rivojlanish modellarini izlashni taqozo qilmoqda. Bunda asosiy omillardan biri sifatida innovatsion faollikni oshirish masalasi birinchi o'ringa chiqadi.

Turizmda innovatsion faollik xizmatlar sifatini oshirish, iste'molchilarga qulaylik yaratish, yangi turistik mahsulotlarni ishlab chiqish va mavjud infratuzilmani zamonaviy talablar darajasiga moslashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar, virtual gidlar va smart-turizm kabi innovatsiyalarni keng joriy etish global tendensiyaga aylangan.



O'zbekiston sharoitida ham turizm iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rirlari yaratish, hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish va milliy madaniy merosni dunyo miqyosida targ'ib etishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, sohada innovatsion faoliyotni oshirish bir nechta sabablar bilan dolzarb hisoblanadi: birinchidan, xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash zarurati; ikkinchidan, hududlarning turizm salohiyatidan samarali foydalanish ehtiyoji; uchinchidan, mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rirlarini yaratish masalasi.

Shuningdek, turizmda innovatsion yondashuvlar orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash, mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilash va milliy turizm brendini shakllantirish imkoniyati mavjud. Shu nuqtai nazardan qaralganda, turizm sohasida innovatsion faoliyotni oshirish shakkari, usullari va funksiyalarini ilmiy jihatdan o'rganish bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, mamlakatimiz turizm siyosatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasi va unda innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish masalasi xalqaro va milliy miqyosda ko'plab olimlar e'tiborida bo'lib kelmoqda. Jahon ilmiy adabiyotlarda innovatsion faoliyotni oshirishga oid tadqiqotlarda, avvalo, turizmda yangi xizmat turlarini joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish asosiy yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Porter M. tomonidan ilgari surilgan klasterlashuv nazariyasi turizmda hududiy integratsiya va hamkorlik orqali innovatsion faoliyotni oshirish mexanizmlarini tushuntirishda keng qo'llaniladi [1].

Yevropa va Osiyo olimlarining tadqiqotlarida turizmda innovatsion faoliyatning eng muhim omillari sifatida raqamli transformatsiya, marketing innovatsiyalari va xizmatlarni diversifikatsiya qilish alohida ta'kidlanadi [2; 3]. Bu yondashuvlar zamonaviy turizmning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston olimlari ham turizmda innovatsion rivojlanish masalalariga e'tibor qaratib kelmoqdalar. Masalan, Vahobov A. turizmni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida baholashda, sohada investitsion va innovatsion muhitni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi [4]. Shuningdek, Abdullaeva D. o'z tadqiqotida hududiy turizm rivojida raqamli marketing, elektron xizmatlar va startaplarni qo'llab-quvvatlash masalalariga e'tibor qaratgan [5].

Qator mahalliy tadqiqotchilar Ahmedov X., Jo'rayev N., Usmonov M. esa turizmda innovatsion faoliyotni oshirishning funksional jihatlariga, ya'ni iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy bandlikni ta'minlash, milliy brendni rivojlanish va xizmat sifatini oshirish kabi jihatlarga e'tibor qaratish lozimligini qayd etadilar [6].

Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida turizmda innovatsion rivojlanishning asosiy drayverlari sifatida quyidagi yo'nalishlar ko'rsatilgan: raqamli xizmatlar, ekologik barqarorlik, barqaror turizm modeli, davlat-xususiy sheriklik va hududiy hamkorlikni kengaytirish [7; 8].

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadi, turizm sohasida innovatsion faoliyotni oshirish masalasi ko'p qirrali va kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu borada nazariy asoslar (klasterlashuv, innovatsion rivojlanish, raqamli iqtisodiyot konsepsiyalari) va amaliy tajribalar (xalqaro turizmda raqamli transformatsiya, milliy turizm strategiyalari) o'zaro uyg'unlikda tadqiq etilishi zarur.

Turizm sohasida innovatsion faoliyotni o'rganishda tizimli, funksional, komparativ va empirik yondashuvlardan foydalaniladi. Tizimli yondashuv turizmni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatlari bilan birlgilikda ko'rib chiqishga imkon beradi. Funksional yondashuv esa innovatsion faoliyotning iqtisodiy, ijtimoiy, marketing va tashkiliy funksiyalarini aniqlashga yordam beradi. Komparativ yondashuv milliy va xorijiy tajribalarni solishtirish orqali samarali shakl va usullarni aniqlash imkonini beradi. Empirik yondashuv statistik ko'rsatkichlar, ekspert baholari va amaliy tajribaga asoslanib, turizmda innovatsion jarayonlarning real natijalarini o'rganadi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faoliyotning shakllarini aniqlash uchun asosiy ma'lumotlar statistik ma'lumotlar bazalaridan, turizm korxonalari hisobotlari, rasmiy nashrlar va so'rovnomalar orqali to'planadi. Olingan ma'lumotlar deskriptiv tahlil, taqqoslash va korrelyatsion usullar yordamida tahlil qilinib, innovatsion faoliyatning samaradorligi va rivojlanish istiqbollari baholanadi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda mamlakat turizm sanoati barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Bu, avvalo, davlat tomonidan sohaga berilayotgan ustuvor ahamiyat, qulay huquqiy-me'yoriy muhitning shakllanishi hamda turizmni milliy iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biriga aylantirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlar natijasidir. Shu bilan birga, turizm xizmatlari eksporti hajmining ortib borishi, xalqaro sayyoohlarni oqimining kengayishi hamda hududlarda innovatsion turistik loyihalarning yo'lga qo'yilishi bu tendensiyani yanada mustahkamlamoqda.



Xususan, O'zbekistonda elektron vizalash tizimining joriy etilishi, onlayn bronlash xizmatlarining rivojlanishi va transport-logistika infratuzilmasining modernizatsiyasi sohaning jadal integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonlar nafaqat xalqaro turistlar uchun qulaylik yaratmoqda, balki mahalliy turizm subyektlarining raqobatbardoshligini ham oshirmoqda.

Umuman olganda, turizmning innovations rivojlanish jarayonlari mamlakat iqtisodiyotida diversifikatsiyani ta'minlash, xizmatlar sektorining YAIMdagi ulushini oshirish va yangi ish o'rinnarini yaratishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, O'zbekiston turizm sohasining barqaror o'sishi global bozor talablari bilan uyg'un ravishda davom etmoqda (1-rasm).



1-rasm. Xorijiy sayyoohlarning soni (2016–2024, ming kishi)

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2016–2019-yillarda xorijiy sayyoohlarning soni keskin ortgan bo'lsa, pandemiya davrida (2020–2021) pasayish kuzatildi, ammo 2022-yildan boshlab turizm sohasi qayta tiklana boshladи. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm xizmatlari hajmi, xizmat eksporti va yangi turistik yo'nalishlarning paydo bo'lishi innovations yondashuvlar bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, elektron vizalar joriy etilishi, onlayn bronlash tizimlari va "smart-tourism" elementlari mamlakat turizmida innovations faoliyatning muhim ko'rinishlari sifatida namoyon bo'lmoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston turizm xizmatlari eksporti va sohaning YAIMdagi hissasi (2016–2023)

Yil	Turizm xizmatlari eksporti	YAIMdagi ulushi (%)
2016-y.	579 mln. AQSh dollarri	0,67
2018-y.	1 314 mln. AQSh dollarri	2,49
2019-y.	1 679 mln. AQSh dollarri	2,79
2020-y.	395 mln. AQSh dollarri	0,66
2021-y.	679 mln. AQSh dollarri	0,98
2023-y.	2 140 – 2 500 mln. AQSh dollarri	3,2 – 3,7

Ushbu jadvaldan ko'riniб turibdiki, 2016–2019-yillarda turizm xizmatlari eksporti barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilgan, pandemiya davrida keskin pasaygan, ammo 2021-yildan boshlab tiklanish boshlangan va 2023-yilda rekord darajaga yetgan.

O'zbekiston turizm sohasida so'nggi yillarda innovations yondashuvlar jadal tatbiq etilmoqda. Bu jarayon, avvalo, turistik oqimlarni ko'paytirish, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan.

Birinchidan, elektron viza va elektron ro'yxatga olish tizimi 2019-yil boshidan joriy etildi. Natijada viza olish jarayonlari ancha soddalashdi, byurokratik tartib-taomillar qisqardi va elektron vizalar soni keskin oshdi. Bu esa xorijiy sayyoohlarning uchun qulaylik yaratib, mamlakatga kelayotgan turistlar sonining ortishiga sezilarli hissa qo'shdi.



Ikkinchidan, onlayn bronlash va “smart-tourism” platformalari 2022–2023-yillarda faol joriy etila boshlandi. Jumladan, “Silk Road Tour” portali ishga tushirildi, turli hududlarda mobil ilovalar orqali mahalliy “smart-gid” xizmatlari yo’lga qo’yildi. Bundan tashqari, elektron to’lovlar va kontaktless xizmat ko’rsatish tizimlari keng qo’llanilmoqda. Mazkur raqamli yechimlar turistlar uchun qulaylikni oshirish bilan birga, xizmat ko’rsatish jarayonida samaradorlikni ham ta’minlaydi.

Uchinchidan, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish yo’nalishida muhim qadamlar tashlandi. Xususan, Samarqand xalqaro aeroporti 2022-yilda rekonstruksiya qilinib, yangi xalqaro reyslar yo’lga qo’yildi. Bu yangilik nafaqat transport imkoniyatlarni kengaytirdi, balki Samarqand shahrini global turistik markaz sifatida rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etdi. Infratuzilmaning innovatsion yondashuvlar asosida modernizatsiya qilinishi hududiy turizmning xalqaro bozorga integratsiyasini jadallashtirmoqda.

O’zbekiston turizm sohasida innovatsion faoliyoti oshirish mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va hududlarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, quyidagi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, innovatsion faoliyoti oshirishning konseptual modeli ishlab chiqilishi zarur. Ushbu model turizm tizimini yagona ekotizim sifatida ko’rib chiqib, unda davlat boshqaruvi, xususiy sektor, ta’lim muassasalari va mahalliy hamjamiyatlarning o’zaro hamkorlik mexanizmlarini uyg’unlashtirishi kerak. Modelda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari, texnologik yechimlar va kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanishi lozim.

Ikkinchidan, raqamli turizm platformalari, mobil ilovalar va smart-turizm texnologiyalarini joriy etish bugungi kunda dolzarbdir. Xususan, yagona “Digital Tourism Uzbekistan” platformasi orqali onlayn bronlash, transport va mehmonxona xizmatlarini birlashtirish, mobil ilovalar yordamida sayyoohlarni shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif qilish, kontaktless to’lov va virtual gid tizimlarini keng tatbiq etish turizm xizmatlari sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Uchinchidan, funksional yondashuv asosida iqtisodiy, ijtimoiy va marketing mexanizmni uyg’unlashtirish talab etiladi. Bu borada iqtisodiy mexanizm sifatida soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlarni ko’rsatish mumkin. Ijtimoiy mexanizm mahalliy aholi bandligini oshirish va turizm sohasida startaplarni qo’llab-quvvatlash orqali namoyon bo’ladi. Marketing mexanizm esa “Uzbekistan – New Travel Experience” kabi milliy brendni global miqyosda targ’ib qilish, hududiy turizm klasterlarining jozibadorligini oshirishni ko’zda tutadi.

Nihoyat, davlat, xususiy sektor va mahalliy hamjamiyat o’rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Jumladan, davlat tomonidan infratuzilma va normativ-huquqiy sharoitlar yaratilib, xususiy sektor investitsiyalari jalb qilinishi, mahalliy hamjamiyat esa innovatsion loyihalarda faol ishtiroy etishi mumkin. Bunday kooperatsiya turizm sohasining innovatsion rivojlanishiga barqaror turtki beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O’zbekiston turizm sohasida innovatsion faoliyoti oshirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, xizmatlar sektorining diversifikatsiyasi va hududiy raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. O’tkazilgan nazariy-metodologik va amaliy-tahlilii tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, so’nggi yillarda mamlakatda turizm infratuzilmasi modernizatsiya qilinib, raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda, elektron vizalash tizimi va onlayn bronlash xizmatlari yo’lga qo’yildi, transport-logistika bazasi takomillashdi. Bularning barchasi sohada innovatsion jarayonlar rivojlanishiga asos yaratmoqda.

Statistik tahlillar shuni ko’rsatadiki, turizm xizmatlari eksporti hajmining oshishi va xorijiy sayyoohlarni oqimining tiklanishi innovatsion yondashuvlar bilan bevosita bog’liq. Turizm sohasida innovatsion faoliyotni yanada oshirish imkoniyatlari mavjud bo’lib, texnologik yechimlarni kengroq joriy etish, samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish, investitsiyaviy resurslar va kadrlar salohiyatini rivojlantirish orqali natijalar sezilarli darajada yaxshilanishi kutilmoqda. Shu nuqtai nazardan, konseptual model yaratish, raqamli turizm platformalarini keng qo’llash, iqtisodiy, ijtimoiy va marketing mexanizmlarini uyg’unlashtirish hamda davlat, xususiy sektor va mahalliy hamjamiyatning samarali hamkorligini mustahkamlash turizm rivojlanishining istiqbolli yo’nalishlarini belgilaydi.

Umuman olganda, turizmning innovatsion rivojlanishi O’zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlash, mamlakat imidjini yuksaltirish va hududiy iqtisodiy o’sishga turtki beruvchi muhim strategik omil bo’lib xizmat qiladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
2. Hall J. Tourism Planning and Innovation in the Global Context. – London: Routledge, 2011.
3. Buhalis D. Technology and Smart Tourism Destinations. – Springer, 2019.
4. Vahobov A. O’zbekiston iqtisodiyotida turizmning ustuvor yo’nalishlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.



5. Abdullaeva D. Hududiy turizmda raqamli marketing va startaplarni rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. Ahmedov X., Jo'rayev N., Usmonov M. Turizm sohasida innovatsion rivojlanishning funksional jihatlari. – Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiya, 2020.
7. UNWTO. Tourism and Innovation Report 2020. – Madrid: World Tourism Organization, 2020.
8. World Bank. Tourism for Development: Innovation and Sustainability. – Washington DC, 2021.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**  
**tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)